



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18477743>

Umrzoqova Sarvinoz Abduqaxhor qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich magistranti

@mail:arziqulova98@bk.ru

[tel: +998979013233](tel:+998979013233)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasidagi rivojlanishlar va jaxon tili hisoblangan ingliz tilining erta yoshdan o'rganishdagi afzalliklari haqida bayon qilingan. Aynan mana shu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Bundan tashqari chet tilini o'rganishda yosh xususiyatlar, shu bilan birga tilni o'rganish uchun zarur bo'lgan metodlardan o'yin metodi va undan qanday foydalanish haqidagi fikrlar berib o'tilgan. Mazkur maqolada maktabga tayyorlov guruhlarida qo'llashimiz mumkin bo'lgan ba'zi samarali o'yinlar ham yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, didaktik, ingliz tili, tarqatma materiallar, zamonaviy, o'yin.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные тенденции развития в сфере дошкольного образования и преимущества изучения английского языка, являющегося мировым, с раннего возраста. В данном направлении были проведены научные исследования. Кроме того, в статье представлены сведения о возрастных особенностях при изучении иностранного языка, а также об эффективных методах обучения, таких как игровой метод, и о том, как его использовать. В статье также освещены некоторые эффективные игры, которые можно применять в группах подготовки к школе.*

Ключевые слова: *Дидактический, Дошкольное образование фонологический, английский язык, коммуникативный, лингвистический, эффективный, раздаточные материалы, современный, игра.*

Abstract. *This article discusses the developments in preschool education today and the advantages of learning English, a global language, from an early age. Scientific research has been conducted in this direction. Furthermore, the article provides insights into age-specific characteristics in foreign language learning, along with effective teaching methods, such as the game-based method and how to utilize it. This article also highlights some effective games that can be used in preschool preparation groups.*
Didactic



Key words :Phonological, didactic, english, communicative, linguistic, effective learning materials, modern ,game.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda. Shuni ham aytib o'tish lozimki,so'nggi yillarda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish faqatgina maktablar va oliygohlarda emas, balki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ta'limning majburiy qismiga aylanib kelmoqda. Bu boradagi islohotlarning yorqin dalili sifatida 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013-2014-yildan boshlab

umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida ingliz tilini uzluksiz o'rgatishning joriy etilishini aytishimiz mumkun. Ko'pchilikka yaxshi ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga o'qish va yozishni o'rgatish mumkun emas.Ularga faqat boshlang'ich ko'nikmalarni berish mumkun hisoblanadi.Huddi shu qoidaga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish ayni muddaodir.

Jadal rivojlanayotgan integratsiya jarayonlari insonlarning o'z ona tilidan boshqa yangi tillarini o'zlashtirishga bo'lgan talabining ko'payishiga asosiy sabablardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida ham bu jarayon tobora rivojlanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarning yoshga oid xususiyatlarini inobatga olgan holda ingliz tili darslari yo'lga qo'yilmoqda. Albatta, bu sohada bir qancha yangiliklar yaratilib ,maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitish metodikasi takomillashtirilmoqda. O'zlashtirilayotgan yangi tilni samaraliroq bilishga olib keladigan muhim omillardan biri o'zga til o'rganishni erta boshlashdir.

Zaruriy bo'lgan yangi tilni kichik yoshdan o'rganib boshlashning bir qancha ustunliklari mavjud hisoblanadi.Chet tilini kichik yoshlardan



boshlab o'rgangan bolalar o'z fikrlarini ifoda etishda yaxshigina yutuqlarga erishadilar va muloqot qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradilar. Chunki chet tilini biladigan bola avval nimani gapirmoqchi ekanligini o'ylab keyin gapiradi. Bundan tashqari kichik yoshlardan o'rganish bolaning xotirasi yaxshi rivojlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchining ortishiga sabab bo'ladi. Ikkita tilni yaxshi o'zlashtirgan bolada uchinchi tilni o'rganishga hohish kuchli bo'lib, uchinchi tilni osongina o'rganishi mumkin bo'ladi. Albatta ikkita yoki uchta tilni bilganidan keyin kelajakda yaxshi ish topishda afzalliklarga ega bo'ladilar va o'zining rivojlanishida, hohlagan pog'onaga yetib borishida zinapoyadan osonroq ko'tarilishi mumkin bo'ladi.

Xorijiy tilni erta yoshlardan o'rganish, insonlarning fonologik qobiliyatini (bu tilning tovush tuzilishini sezish, tushunish va ishlatish qobiliyati) va kommunikativ qobiliyatini (bu muloqot qilish, ya'ni fikrlarni, g'oyalarni, ma'lumotlarni, hissiyotlarni va boshqa xabarlarni samarali tarzda yetkazish va qabul qilish qobiliyati) sezilarli darajada kengaytiradi.

Hammamizga yaxshi ma'lum bo'lgan o'sha mashhur "Uchdan keyin kech" asarining muallifi Masaru Ibuka ham o'z kitobida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "Biz uch yoshdan katta bolalarga nimani o'rgatish masalasiga ko'p e'tibor beramiz. Ammo, zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, bu yoshgacha bosh miyadagi

hujayralarning 70-80%i rivojlanib bo'ladi".

Yangi zaruriy bo'lgan tilni o'zlashtirish kommunikativ o'yin hisoblanib, unda muloqotning eng dolzarb va murakkab tomonlari mashq qilinadi. Xorijiy tilni bolalikdan o'rganish bolani yangi sharoitlarda muloqot qilishga qo'rqmaydigan, suhbatdoshining yangi qoidalarini qabul qilishga tayyor va yangi tilda gapiradigan insonlarga baynalminallik tamoyili asosida munosabatda bo'ladigan qilib tarbiyalashga ko'mak beradi. Ona tili bilan birgalikda xorijiy tilni o'zlashtirishga barcha sharoitlarni vujudga keltiradigan oilada ulg'aygan bolalarda til o'rganishga ishtiyoq va istak-xohishlar boshqa bolalarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Til borasida kognitiv rivojlanish yuqorilaydi. Chet tilini bilish - chet madaniyatini bilishni anglatadi. Ikkinchi tilni o'rgatishni o'z vaqtida boshlamaslik yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni rivojlanishida qiyinchiliklar paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Har qanday tilda shaxsiy fikrlarini ifoda eta olmaslik - bolani muloqot sifatiga, bayonotlar mazmuniga, so'z boyligi va grammatikani rivojlantirishga mas'ul bo'lgan shaxslarning yetarlicha e'tibor bermasligi natijasi bo'lishi mumkin.

Tilning oson, qulay va ortiqcha qiyinchiliklarsiz o'rganadigan vaqt - bu maktabgacha yoshdagi bolalik davridir. Ushbu vaqtdagi bo'shliqlar insonning butun keyingi hayotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.



Maktabgacha yoshdagi va kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi ularning maktabga tayyorlov ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi bilan emas, aksincha u takroran foydalana oladigan hayotiy materialning mavjudligi, ya'ni turli xil hislar, tajribalar, qiyinchiliklar, sinovlarni yenga olishi bilan baholanadi. Shu bilan birgalikda, intellektual, jismoniy, hunarmandchilik va badiiy faoliyatining turli sohalarida o'zini sinab ko'rishga harakat qiladi. Yanada yaxshiroq aytadigan bo'lsam, agar bolaning kamida bitta tilda intellektual va lingvistik rivojlanishi yetarlicha yuqori bo'lsa (ikkinchi tilda mavjud, ba'zida kamroq bo'lishi mumkin), umumiy til qobiliyatlari darajasi kerakli darajada yuqori saqlanadi; agar o'zining ona tilida aniq muammolar va kamchiliklar mavjud bo'lsa, yangi tilni o'rta darajada o'rganish mumkin.

So'nggi vaqtlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish juda keng tus olgan bo'lib, bunday tashkilotlar soni bolalar soni kundan kunga ortib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Ayni o'rinda shuni aytishim joizki ikkinchi til-chet tilini maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv rejasiga kiritish O'zbekistonda ham keng joriy etilmoqda va bugungi kunda mamlakatimizdagi ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ikkinchi xorijiy til o'rgatilmoqda. Aynan ushbu jarayonlarda bolalar va kattalarning ikkinchi tilni o'zlashtirishida mavjud bo'lgan tafovutlar yuzaga keladi. Bunda kattalar

til o'zlashtirishda maydonga kelgan muammolardan hijolat tortishi, avvaldan bor bo'lgan bilimlar majmui va yangi o'rganilayotgan bilimlar o'rtasidagi tafovutlar natijasida tilda erkin muloqot qilish muammolari paydo bo'lsa, bolalik chog'larda bunday muammolar anchagina kamroq vujudga keladi, buning sababi sifatida xato va kamchiliklarga e'tibor bermaslik, ikkinchi tilni qiziqish yoki rag'bat sifatida o'rganilishi deb hisoblayman.

Maktabgacha ta'lim sohasi mutaxasislari bolani yoshligidan chet tilini o'rgatishga shoshmaslikni tavsiya qiladilar. Taxminan, 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda boshning o'ng yarim miya shari ishlaydi. Mantiqiy fikrlash esa aynan mana shu yarim sharda yaxshi ishlaydi. Aynan mana shunday jihatlarni inobatga olgan holda bolaning hali axborotlarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini ham hal qilish ayni muddao bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga klassik ko'rinishdagi chet tilini o'rgatish uslubi to'g'ri kelmaydi. Ya'ni xorijiy tilni kattalarga o'rgatiladigan ko'rinish (Grammatik tuzilishlar) nazarda tutilmoqda. Demak, bolalarga o'yinlar vositasida chet tilini o'rgatish, ya'ni "o'ynab o'rganish" usuli yaxshi samara beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori barcha fuqarolarning chet tillarini yanada puxta



o'rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birgalikda, maktabgacha ta'lim tizimining tarbiyachi va pedagog kadrlari zimmasiga yanada mas'uliyat yuklaydi.

Raximova.Sh o'z kuzatishlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'zlashtirish sifatini nazorat qilish masalalarini yoritgan holda, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga qo'shimcha kvalifikatsiya berishga qaratilgan variativ o'quv me'yoriy hujjatlar loyixalari ishlab chiqilgan.

Ushbu ilmiy ishda ko'zlangan g'oyalardan biri shundan iborat ediki, Raximova.Sh tomonidan maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ikkinchi kvalifikatsiya sifatida maktabgacha ta'limda ingliz tili o'qituvchisi mutaxassisligini berishning variativ dasturi ishlab chiqish taklifi berilgan.

Yana boshqa tadqiqotchilarimizdan biri didaktik o'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'z nazariyalarini ilgari surgan, unga ko'ra so'nggi vaqtlarda maktabgacha ta'limda o'yin 6-7 yoshli bolalar uchun tabiiy o'rganish shakli bo'lib, bolalar hayotiy tajribasining bir qismi hisoblanadi. Tadqiqotchi o'yinlar o'ynash orqali bilim berganda bolalarning

bugungi kundagi ehtiyojlarini qondirgan holda kelajakdagi manfaatlariga xizmat qilishini aytib o'tgan. Ushbu ilmiy ishda muallif tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar klassifikatsiyasining mualliflik tasnifi, grammatik, fonetik va leksik o'yinlarga lingvistik jihatdan yo'naltirish va idientiv uyg'unlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik shart – sharoitlari didaktik o'yinni o'tkazish metodikasi orqali samaradorlikni ta'minlashga asoslangan ingliz tili dasturiga ustuvorlik berish va tayyorgarlik, o'yinni o'tkazish hamda o'yin natijalarini nazorat qilish bosqichlarini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

A. Sh. Hikmatullayevnaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi” nomli ilmiy ishi o'rganilganda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatishda bir qancha yangi metodlar yoritib o'tilganini kuzatdik. Ushbu ilmiy ishda muallif tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini ortiqcha qiyinchiliksiz o'zlashtirishida imprinting, motivatsion, senzitiv va immitatsion xususiyatlari psixolingvistik yondashuv bo'yicha isbotlanganligini, umumiy muhim kompetensiyalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili leksik zaxirasiga tayangan holda, vizuallik, mavzuviylik, va ko'p



ishlatilishi bo'yicha tanlangan ingliz tili faol leksik minimum taklif etilgan, shu bilan birgalikda, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili faol va nafaol leksikasini o'rgatishning metodik ta'minoti qo'shiq, ertaklar va she'r vositasida hamda harakatli, rolli, didaktik, imitatsion o'yin texnologiyasi integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlarining bu boradagi qarashlari ko'zdan kechirilganda, ularda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish bo'yicha anchagina yangi uslub va ko'rsatmalar mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Lichiporenko tomonidan qilingan ilmiy tadqiqotlar esa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatish yuzasidan olib borilgan bo'lib, kuzatuv natijasida katta guruh tarbiyalanuvchilariga ingliz tili o'rgatishning pedagogik qo'llab quvvatlash usullari ochib berilgan. Shu bilan birgalikda tadqiqotchining ishlarida, ingliz tilini o'qitish hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabatlar majmui sifatida tushunilgan hamda ushbu qarashlar asosida ingliz tili o'rgatish pedagogik usullari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

Yuqoridagi barcha ilmiy ishlar o'rganilganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyasi hamda interfaol usullarni qo'llash to'g'ri yondashuv ekanligi ochiqlandi. Shularni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili darslarini

o'tkazishda foydalanishning eng samarali usullari ishlab chiqildi. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning yoshga xos xususiyatlari: idrokning keskinligi, aniqligi, tasavvurining jonliligi, tafakkurining ravshanligi, xotirasining mustahkamligi, ishonchliligi va qiziquvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan farqlanib turadi. Maktab ta'limiga hozirlik ko'rayotgan bolada e'tibor nisbatan uzoq muddatli va shartli ravishda barqaror hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning so'z boyligi o'z fikrini bildiradigan darajada ortadi. 6-7 yoshli yaxshi rivojlanayotgan bola o'z ona tilida 2000-6000 taga yaqin so'z ishlatadi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat. Bu yoshdagi bolalar nutqida qaysi so'zlarni ishlatish va qaysi so'zlarni qo'llamaslik kerakligini biladi. 6-7 yoshli bola murakkab grammatik tizimda jumlar hosil qila oladi. Bola nutqni intensiv ravishda egallaydi va nutqni o'zlashtirish muayyan faoliyatga aylanadi. Aksariyat bolalar chet tilini o'rganishning boshlanishini xotirjam va qiziqish bilan qabul qiladilar, ba'zilari esa bo'lajak kursga ishtiyoq bilan qarashadi (ayniqsa, katta yoshda, ota onalar chet tillarini bilish inson hayotida qanchalik muhimligini allaqachon tushuntirishga muvaffaq bo'lishgan), ayrimlari esa nima bo'layotganini va ulardan nima talab qilinishini umuman tushunishmaydi. Qiziqish paydo bo'lishi va yo'qolmasligi uchun o'qituvchi har doim foydalanadigan metodlarning yangiligini haqida bilishi, ba'zan yaxshi



natija ko'rsatgan metodlarni takrorlashi, mashg'ulotlarni bir vaqtning o'zida zavq bilan, qiziqarli va jiddiy o'tkazishi kerak.

Bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatish uchun o'yin texnologiyasidan foydalanish juda qulay usul hisoblanadi. Buning asosiy sababi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning asosiy faoliyati o'yin faoliyatidir. Ular o'yin faoliyatini bajarish orqali o'z diqqatlarini nazorat qila oladilar. Shunday ekan, bu davrda tarbiyalanuvchilar bilan o'yinlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish kutilgan natijani beradi. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun darslarda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lum bir o'yin turlarini ko'rishingiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar uchun hayvon nomlarini o'rgatadigan qiziqarli ham didaktik ham rolli o'yin sifatida "Animal charades" ya'ni hayvonlarni qiyofadan bilish o'yinini misol tariqasida aytishimiz mumkin. Bu o'yinning maqsadi: bolalarga turli hayvonlarning nomlarini o'rgatish, ularga qiziqarli va faol kommunikatsiya qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. O'yin jarayoni quyidagicha olib boriladi: Hayvonlarning rasmlari (misol uchun mushuk, kuchuk, ayiq, quyon, parrandalar va boshqalar) nomlari yozilgan kartochkalar kerak bo'ladi. Bunda o'yin boshlanishidan oldin hayvonlar haqida ma'lumot berib o'tishimiz kerak bo'ladi. O'yinni umumiy guruh tarzida yoki bo'lmasa ikki yoki uchta mini

guruhlariga bo'lgan holda ham amalga oshirsa bo'ladi. Har bir guruhdan bitta bola chiqib kartochkalardan birini tanlaydi va ko'rsatilgan hayvonni hatti harakatlar bilan bolalarga tushuntiradi. Bolalar esa hayvon nomini ingliz tilida aytishadi. Masalan mushukni ifodalasa, ular ko'p hollarda "meov" (mushukning ovozi) qilishlari yoki mushuklarga xos haramkukterlarni bajarishlari mumkin. Har bir hayvonni ifodalash uchun 1-2 daqiqa beriladi. O'yin tugagach eng qiziqarli yoki eng yaxshi ifodalangan hayvonni tanlashi mumkin. O'yin davomida bolalar o'z navbati kelishini kutishlari lozim. Bu ularda ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishiga yordam beradi.

"Xonada qanday ranglar bor?" ushbu o'yinli mashg'ulot uchun bolalar xonadagi barcha predmetlarni kuzatadi va qaysi predmet qanday rangdaligini avval o'z ona tilida so'ng esa o'zlashtirilayotgan tilida aytadi. Misol uchun: pardaning rangi oq ingliz tilida esa "white" eshikning rangi malla inglizchada "brown", rang-barang stollarning ranglar: "red", "green", "yellow" kabi ranglarini bolalar bilan takrorlab ranglar haqidagi bilimlarimizni rivojlantirishimiz mumkin va har safar ko'rganida eslaydi va doimiy takrorlash bo'ladi. Bundan tashqari o'rtog'i kiyib kelgan kiyimining rangini ham aytishadi. Bu o'yin bolaning kuzatuvchilik qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bundan tashqari hozirgi kunda barcha tashkilotlardagi har bir xonada



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i mavjuddir. Bayroqning qanday ranglari borligini 3-4 yoshli bolalar ham bilishadi. Lekin uning ingliz tilidani nomlarini katta va tayyorlov guruhidagi bolalarga o'rgatish mumkin.

“Meva nomlari” Ingliz tilini o'rganish uchun eng yaxshi o'yinlardan biri, “Meva nomlari” bolalarga mevalarning nomlari va ularning yozilishini o'rganishga yordam beradi.

Bolalar tegishli mevaning rasmini tanlab oladi va ma'lum belgilangan vaqt tugashidan oldin harflarni kerakli joyga keltirib, mevalarning nomini yozishlari kerak. Ushbu o'yinni bola bilan doim o'ynash mumkin va bunda nafaqat mevalardan balki bolalarga qiziqarli bo'lgan boshqa mavzuga oid so'zlardan foydalanib ham o'ynash mumkin bo'ladi. Ushbu o'yin ham bolaga o'qish va yozishni o'rgatishda katta yordam berib, diqqat va xotirani shakllantirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirib o'tgan ba'zi namunalardan ko'rib turibmizki, o'yin

texnologiyalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'rgatish uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bolalarning ushbu yoshdagi fiziologik, psixologik, va emotsional jihatlarini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu vaqtda asosiy faoliyat turi o'yin faoliyatidir. Mashg'ulotlarda qo'llaydigan o'yin turlari bolaning yoshi, imkoniyatlari, qiziqishlari va shu bilan birga ta'lim dasturlarida kelib chiqqan holda tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar uchun eng foydali o'yinlar: ta'limiy o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va boshqa shu kabi o'yinlar hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan unumli foydalanish ularning kelgusida ingliz tilida samarali faoliyat olib borishiga zamin yaratadi. Bu ularning bugungi kundagi o'yinga bo'lgan ehtiyojini ham qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bolalarga xorijiy tilni o'rgatishda muntazam ravishda turli o'yinlardan foydalanib borish ayni muddaodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi (2-nashr), 2022-yil.
3. Sh.B. Raximova, “Maktagacha ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'zlashtirish sifatini boshqarish”, avtoreferat, Toshkent- 2023
4. O.V Koryakovtseva “Metodika obucheniya angliyskomu yaziku detey preddoshkolnogo vozrasta”, avtoreferat, Moskva-2010



5. Shohsanam, A. (2024). Productive activation of the school preparation group's students through games in english. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 161–165.

6. <https://www.education.com/worksheet/article/trace-write-missing-letters>

7. <https://www.education.com/worksheet/article/count-and-color-activity-2>

8. <https://www.education.com/worksheet/article/missing-numbers-1-100>